Toshkent shahar statistika boshqarmasi

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

**2018 yil yanvar–noyabr**

**RAQAMLAR:**

- 2018 yil yanvar–noyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 43 443,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari 121,0 %ni tashkil qildi.
- Toshkent shahrining jami xizmatlarda eng katta ulushni savdo xizmati egallagan 26,6 %.

Ma'lumki, xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar–noyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 43 443,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (26,6 %), moliyaviy xizmatlar (24,1 %), transport xizmatlari (12,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,3 %) tashkil etdi.

**Asosiy xizmat turlari bo'yicha ulushlarni solishtirilishi**

***(2018-yil yanvar—noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan, %)***



2018 yil yanvar–noyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 43 443,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 % ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

*(2018 yil yanvar–noyabr oylarida)*

| | Hajmi, mlrd.so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % |
|---|---|---|
| **Xizmatlar - jami** | **43 443,3** | **111,8** |
| shu jumladan: | | |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 4 474,0 | 119,0 |
| moliyaviy xizmatlar | 10 475,2 | 121,0 |
| transport xizmatlari | 5 506,5 | 114,0 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 3 286,9 | 103,0 |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari | 1 745,2 | 105,3 |
| savdo xizmatlari | 11 550,5 | 104,9 |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 1 959,4 | 104,1 |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar | 2 119,9 | 102,6 |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 730,7 | 116,2 |
| ijara xizmatlari | 824,1 | 105,3 |
| kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 229,3 | 107,9 |
| shaxsiy xizmatlar | 556,3 | 103,2 |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 1 172,1 | 126,4 |
| boshqa xizmatlar | 2 100,1 | 106,0 |

2017 yil yanvar–noyabr oylariga nisbatan, 2018 yil yanvar–noyabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (126,4 %)da va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (121,0 %)da qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati**
***(2018 yil yanvar–noyabr oylarida, %)***




Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (102,6 %), shaxsiy xizmatlar (103,2 %)da, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (104,1 %)da va savdo xizmatlari (104,9 %)da kuzatildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi (2,9 trln. so'm), savdo xizmatlari (2,3 trln. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (0,9 trln. so'm), transport xizmatlari (1,0 trln. so'm), ta'lim sohasidagi xizmatlar (0,4 trln. so'm) oshishi kuzatilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi**

***(2018 yil yanvar–noyabr oylarida, mlrd.so'm)***




O'tgan yilning shu davriga nisbatan kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda xizmatlar hajmi nisbatan pastroq o'sish (0,04 trln. so'm) qayd etildi.

## Tumanlar bo'yicha ko’rsatilgan xizmatlar hajmi

*(2018 yil yanvar–noyabr oylarida)*

| | Hajmi, mlrd.so’m | O’tgan yilga nisbatan o’sish sur’ati, % |
|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | **43 443,3** | **111,8** |
| tumanlar: | | |
| Uchtepa | 2 350,1 | 103,8 |
| Bektemir | 1 169,5 | 108,7 |
| Yunusobod | 8 144,7 | 114,6 |
| Mirzo Ulug'bek | 4 371,0 | 116,0 |
| Mirobod | 6 538,9 | 111,3 |
| Shayxontohur | 4 534,4 | 110,6 |
| Olmazor | 2 177,5 | 105,6 |
| Sergeli | 2 670,1 | 122,0 |
| Yakkasaroy | 2 837,9 | 107,6 |
| Yashnobod | 4 241,8 | 114,7 |
| Chilonzor | 4 136,4 | 109,3 |
| Tumandan tashqarida | 271,0 | 88,5 |

Tumanlar o’rtasida eng yuqori hajm bilan Yunusobod tumani (8 144,7 mlrd.so’m) etakchilik qilmoqda. O’tgan yilning mos davriga nisbatan, ko’rsatilgan bozor xizmatlarining o’sish sur’ati Yunusobod tumani bo’yicha 114,6 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda Toshkent shahrining har bir iqtisodiy tumanining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liqdir.

**Jami xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi**
***(2018 yil yanvar–noyabr oylarida, %)***




Jami xizmatlar hajmida eng katta ulushni tumanlar o'rtasida Yunusobod (18,8 %), Mirobod (15,1 %), Shayxontohur (10,4 %) va Mirzo Ulug'bek (10,1 %) tumanlari egallaydi.

Tumanlar o'rtasida eng kam ulush Bektemir (2,7 %), Olmazor (5,0 %), Uchtepa (5,4 %) va Sergeli (6,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari Sergeli (122,0 %), Mirzo Ulug'bek (116,0 %), Yashnobod (114,7 %), Yunusobod (114,6 %) kabi tumanlarida qayd etildi.

**Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati**

***(2018 yil yanvar–noyabr oylarida , %)***




Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari Uchtepa (103,8 %), Olmazor (105,6 %), Yakkasaroy (107,6 %) va Bektemir (108,7 %) kabi tumanlarida kuzatildi.

Bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari (26,6 %) eng yuqori ulushni tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste`molchiga yo`naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko`rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida ulgurji savdo (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi - 48,1 %.



2018 yilning yanvar—noyabr oyida moliyaviy xizmatlar o’tgan yilning mos davriga nisbatan o’sish sur’ati 130,7 % tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida salmoqli ulushni sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar 88,1 % egallaydi.

**Tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o’sish sur’ati**

***(2018 yil yanvar—noyabr oyida, % da)***




2018 yil yanvar—noyabr oyida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmi 6 297,5 mlrd. so’mni tashkil qildi

**Moliyaviy xizmatlarning tarkibi**

***(2018 yil yanvar—noyabr oyida)***



Harakatchanlik, qulaylik, nisbatan yuqori bo’lmagan narxlar avtomobil transportiga uning boshqa turlari o’rtasida uzoq muddat birinchilikni saqlab qolish imkonini beradi. 2018 yil yanvar–noyabr oylarida avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3 286,9 mlrd. so'mga teng bo’lib, o’sish sur’ati 103,0 %ni tashkil etdi.

**Avtotransport xizmatlarining umumiy hajmida tumanlarning ulushi,**
***(2018 yil yanvar–noyabr oylarida,%)***




Avtomobil transportida ko’rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmida eng past ulush Yakkasaroy (4,3 %), Bektemir (4,6 %), Mirobod (6,9 %) va Sergeli (7,5 %) tumanlarda qayt etildi.

Eng yuqori ulush Shayxontohur (12,5 %), Mirzo Ulug’bek (11,9 %), Yunusobod (11,5 %) va Yashnobod (10,6 %) tumanlariga to’g’ri keladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologiyali xizmatlarni yanada rivojlantirish, yangi turdagi xizmatlar ro'yxatini kengaytirish, shuningdek taklif qilingan xizmatlarning sifatini yaxshilash aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi, ya'ni 2018 yil yanvar–noyabr oylarida 19,0 % ni tashkil qildi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati**

***(2018 yil yanvar–noyabr oylarida , %)***




Yuqori o'sish sur'atlari Yunusobod (133,6 %), Yashnobod (127,8 %), Shayxontohur (125,2 %) va Chilonzor (117,1 %) tumanlaarda qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan uncha yuqori bo'lmagan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati Mirobod (104,0 %) va Sergeli (107,5 %) tumanlarda kuzatildi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 1 745,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar–noyabr oylariga nisbatan o'sish 5,3 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 4,0 % ga yetdi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**
***(2018 yil yanvar–noyabr oylarida, %)***




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 76,1 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 23,9 % ga to'g'ri keladi.

**Tumanlar o'rtasida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori va eng past hajmlarini solishtirilishi**
***(2018 yil yanvar–noyabr oylarida, %)***




2018 yil yanvar–noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Yunusobod tumanida 480,7 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Eng past hajm Bektemir tumanida - 12,7 mlrd.so'm qayd etildi.

Sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo’yicha Mirzo Ulug’bek tumani etakchilik qilmoqda. Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida uning ulushi 21,8 % ni tashkil qiladi. Shuningdek eng yuqori ko'rsatkichlar Chilonzor (15,1 %), Yunusobod (13,1 %) va Olmazor (11,4 %) tumanlarida kuzatildi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning tumanlar kesimidagi hajmi va o’siash sur’ati**

***(2018 yil yanvar—noyabr oylarida)***




Eng past ko'rsatkichlar Bektemir (0,5 %), Sergeli (1,6 %) va Yakkasaroy (3,8 %) tumanlarda kuzatilmoqda.

2018 yil yanvar–noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 2 119,9 mlrd. so'mga tashkil etdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 % ga oshdi .

**Tumanlar bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati**

***(2018 yil yanvar–noyabr oylarida, %)***




Tumanlar orasida eng yuqori ko'rsatkich Chilonzor (110,9 %), Sergeli (109,3 %), Mirzo Ulug’bek (108,0 %) va Olmazor (107,3 %) tumanlarida qayd etilgan.

Yuqori bo’lmagan o’sish sur'atlari Shayxontohur (86,3 %), Mirobod (98,1 %) va Yakkasaroy (99,5 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

**Toshkenr shahar**

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo’limi**

Mas’ul: Aleshunina O.V.

*(71) 230-88-15*